



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



2/2024

OLIV TALIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nurbayeva Xabiba Botirovna

Tibbiyot akademiyasi Pedagogika va Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega ekanligi G'arb olimlari bu borada, asosan talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, fuqarolik, shaxs, pedagogik –psixologik xususiyatlari milliy qadriyat, komil inson, buyuk allomalar, omillar, talim-tarbiya

РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ ВУЗОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Нурбаева Хабиба Ботыровна.

Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии
Медицинской академии

Абстрактный. В данной статье сообщается, что история, корни и формирование принципов ценообразования человечества имеют давнюю историю.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гражданство, личность, педагогико-психологические характеристики, национальная ценность, совершенный человек, великие ученые, факторы, образование.

DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Nurbayeva Khabiba Botyrovna

Senior teacher of the Department of Pedagogy and Psychology of the
Medical Academy

Abstract. In this article, it is reported that the history, roots, and formation of principles of valuing humanity have a long history.

Key words: New Uzbekistan, citizenship, personality, pedagogical-psychological characteristics, national value, perfect person, great scientists, factors, education.

Bugungi kunda insoniyat tarixidan bizga ma'lumki, insoniyat esini tanibdiki, uning butun hayot-faoliyati ma'lum bir qadriyatlarni, ijtimoiy normalarni bunyodga keltirish, boyitish, shakllantirish, o'z qadri-qimmatini oshirish, uni oyoq-osti qiladiganlarga qarshi kurashish bilan kechib kelmoqda.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichi, bozor munosabatlarining jamiyat hayotida mustahkam o'rin olishi boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimida demokratik, iqtisodiy shakllariga o'tish bilan tavsiflanadigan ta'lim tizimi boshqarish mexanizmining o'zgartirilishi zaruratini shart qilib qo'ymoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammosini oldingi planga surib chiqaradi, balki boshqaruv subyektlari tomonidan uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish, turli bo'g'inlardagi rahbarlarning boshqaruv faoliyatidagi mahsuldor faoliyatiy xususiyatlarni bashorat qilish va shakllantirish kabi muammolarni ham olg'a suradi.

Sharq juda katta hudud. Ammo uni birlashtirib turuvchi mushtarak umumiy xususiyatlar mavjud. O'zbekistonning hozirgi hududi Sharqning bir bo'lagidir. Sharqning o'ziga xos xususiyatlari Sharq xalqlarining bosiqqligi, keskin vaziyatda muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilish, hayotning negizi va zamini izchil kundalik mehnatda ekanligini e'tirof etishi hayotning o'tkinchi ekanligini bilib, mol-dunyo yig'maslik, hamma vaqt o'zini tiya bilishdadir.

Shuning uchun Sharqning Gʻarbdan farqli tarzda oʻziga xos odob-axloq normasi va tarixiy xususiyatlari mavjud.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining umuminsoniy gʻoyalari: Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari va Beruniyning ilmiy va ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Forobiyning adolatli jamiyat, yetuk, fozil odamlar haqidagi ilgʻor fikrlari, Ibn Sinoning ruhiy-ilohiy va tibbiyot sohasidagi taʼlimotlari, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, Ulugʻbekning ilmi nujum haqidagi, Bobur va Mashrab gʻazallarida ilgari surilgan umuminsoniy gʻoyalar, oʻtgan asr boshidagi jadid-maʼrifatparvarlari – Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Choʻlpon, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif Soʻfizoda kabi ziyolilar faoliyati ham maʼnaviyatimiz negizlarini bilishga yordam beradi.

Oʻlkamizdagi qadimgi xalqning dunyoviy, ilmiy, diniy va maʼnaviy qarashlari ilk yozma manba «Avesto»da oʻz ifodasini topgan. «Zardushtiylik taʼlimoti Markaziy Osiyo ibtidoiy davrida mavjud boʻlgan tabiat kuchlarini ilohlashtiruvchi eʼtiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik taʼlimotdir. U bexuda qon toʻkuvchi, qurbonliklar, harbiy toʻqnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, oʻtroq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shugʻullanishga daʼvat etadi. Umuman, moddiy hayotni yaxshilashga urinishlarni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblab, xayrli ishni, axloqli, odobli boʻlishni turli diniy aqidalarga mutloq amal qilishdan ustun qoʻygan».

Har bir jamiyatning jadal taraqqiy etishi esa nisbatan barqaror boʻlishi, bu jamiyat aʼzolarining tinch-osuda kechirishi, intellektual potentsiali boyligi milliy oʻzlik sifatida uyushishi, shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, elat, millatlarning muayyan qadriyatlarini qabul qilib, anglab, ularga amal qilib, oʻz faoliyatlari yoʻnalishini belgilab olishi kabi psixologik qonuniyatlarga bogʻliq.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar milliy qadriyatni sotsimda vujudga keladigan, shakllanadigan va takomilashib boradigan, oʻtmishda, hozirgi davrda va

kelajakda ham ijtimoiy muhitga ijobiy ta'sir etadigan kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy boylik hisoblanadi.

Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha — Aksiologiya (aksio — qadriyat, logos — ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan tiklana boshladi. Qur'oni karim, Hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Ma'lumki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi.

Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalarni bo'lgandek, har bir yurt hayotini tashkil etishning uam o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalari bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Milliy qadriyatlar deb inson va insoniyatning o'tmishda va hozirgi davrda yaratgan millatga xos, jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun g'oyat qimmatli, qadriyatli bo'lgan halq, millat, elat, ijtimoiy guruhlarining manfaatlari, maqsadlariga hizmat qiladigan moddiy va ma'naviy boyliklariga aytiladi.

Qadriyatlar muayyan ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga va shaxs psixik taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Qadriyatlar ikki katta qismga-moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'ysunadiyu bularning birinchi qismiga moddiy boyliklar, tarixiy obidalar, arxeologik topilmalar, e'tiborlik va shiorlar, asori-antiqa yodgorliklar va hokazolar kiradi. Ularning ikkinchi qismiga ilm-fan, san'at, axloq,

ma'naviyat-madaniyat, adabiyot asarlari, ozodlik, erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, do'stlik, halqaro hamkorlik, dindagi real qadriyatlar va hokazolar kiradi.

1. Milliy qadriyatlar muayyan halq, millatga, bularning yaqin ajdodlariga tegishli bo'lgan qadriyatlardir.

2. Milliy (regional) qadriyatlar muayyan jug'rofiy mintaqa halqlariga, chunonchi O'rta Osiyo halqlariga xos bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy qadriyatlardir. Bunday qadriyatlar, ayniqsa, bu o'lkada umrguzorlik qilib yaratgan, tabiiy-ilmiy, falsafiy, badiiy, axloqiy meroslarda yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Umum ijtimoiy qadriyatlar butun nisbatga, jahon halqlariga, tegishli bo'lgan jahon sivilizatsiyasi hazinasiga kiritilgan qadriyatlardir.

Qadriyatlar orasida ana shu umuminsoniy qadriyatlar asosiy, belgilovchi, yetakchi, umriboqiy, universal rol o'ynaydi. Bular uzoq va yaqin moziydagi, hozirgi davrdagi g'oyat qimmatli, hamisha barhayot, o'chmas iz qoldiradigan, jahon halqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy manfaati ehtiyoji, e'zozligiga ilmiy, badiiy, axloqiy xizmat qiladigan boyliklardir.

Milliy qadriyatga daxldor tadqiqotlar uning 5 shaklda-tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va diniy shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Tabiiy qadriyatlarga Yer osti va usti boyliklari, lekin, Yer suvlari, savob, o'rmon, o'simlik, hayvonot, dengiz, okean osti boyliklari kiradi.

Iqtisodiy qadriyatlarga moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish qurollari, texnika va texnologiya kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga ijtimoiy shaxsning ozodligi, erkinligi, tengligi, tinchlik, adolat, halqaro hamkorlik, va hokazolar kiradi.

Ma'naviy qadriyatlarga ilm-fan, jumladan falsafa, san'at, axloq, ma'naviy madaniyat, adabiyot, huquq, dindagi real, dunyoviy ta'limotlar, hurfikrlilik va hokazolar kiradi. Qadriyatlarining barcha turi va shakllari bilan ma

Endi bevosita sharq allomalarining ilmiy merosida asosan milliy qadriyat va uning shakllanishi, milliy qadriyatlarning insoniyat axoqidagi roli, milliy

qadriyatlarni barkamolikka ta'sir kabi masalalar ko'p o'rganilgan va bir-biridan nodir va ratsional xulosalar ilm ahliga taqdim etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarimizning asarlarida hamda "Avesto" va "Qur'on" kabi muqaddas kitoblarimizda, shaxs kamoloti va uning go'zal xulqi ma'lum bir qadriyatlar asosida shakllanishi mumkinligi yuzasidan qimmatli fikrlarni qayd etilgan va bu fikrlar bugungi kunda o'zbek xalqining asosiy qadriyati sifati qaralib kelinadi.

Kishilik jamiyatining ko'p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qadriyatlar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo'lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg'unchi va vayronkor illatlar ham doim mavjud bo'lishligini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar har bir xalq tomonidan ishlab chiqilib aynan shu qadriyatlar millat vakillari tomonidan qo'lanishi va amaliyatga tatbiq etilishi shu xalqning milliy taraqqiyotini agarkin shu xalq tomonida milliy qadriyatlari unutilib, turli yot, begona va soxta qadriyatlarga berilsa shu xalqni ma'naviy tanazulli naqd ekanligin ko'p bora isbotlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish darkor. Talabalarning har tamonlamma rivojlanishiga atrof muhit va tengdoshlari juddayam katta tasir ko'rsatadi Biz, asosan, talabada shaxsning ijodiy fazilatlarini, o'rganilayotgan materialdantashqariga chiqish ehtiyojlari va imkoniyatlarini, o'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish zarurligidan kelibchiqamiz. Talabalarni komil inson qilib tarbiyalashda ularga koproq kitob o'qishni maslahat berishimiz va yol ko'rsatishimiz darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406 son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.

2. Umarova Zuhra Abduraxmanovna “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti. 12 b
3. X.Sultonov, A.Rasulov, A.Axmedov, A.Alimov, X.Shayxova, M.Quronov, A.Umarov, L.Tangirov, “Ma‘naviyat Asosiy tushunchalari izohli lug‘ati” G‘ofur g‘ulom nomidagi nashriyot –manbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009-yil 759 bet
4. Muzayyamxon Farmonova “Qadriyatlar – ma‘naviy kamolot asosi” Ilmiy-uslubiy qo‘llanma 35 b.
5. Umumiy pedagogika va psixologiya o‘quv qo‘llanma T.: 2018. 38- bet
6. Muzayyamxon Farmonova “Qadriyatlar – ma‘naviy kamolot asosi” Ilmiy-uslubiy qo‘llanma 40 b.